Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATI TAHLILI ASOSIDA ISTIQBOLLI YO'NALISHLARNI ANIQLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD, dotsent
ergashibadullaev90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining eksport salohiyati chuqur o'rganilib, hududning iqtisodiy imkoniyatlari va mavjud resurslaridan samarali foydalanish orqali istiqbolli eksport yo'nalishlari aniqlangan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil va komparativ baholash usullari qo'llanildi. Asosiy eksport mahsulotlari, ularning tashqi bozorlardagi o'rni, mavjud muammolar va cheklovlar aniqlab berildi. Tahlillar eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish zaruratini ko'rsatdi. Natijalar asosida Xorazm viloyatining eksport strategiyasini takomillashtirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqola eksport siyosatini rivojlantirishda va mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni oshirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, tashqi savdo, eksport salohiyati, diversifikatsiya, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the export potential of the Khorezm region, focusing on the effective use of the region's economic capacities and resources to identify promising export directions. Statistical analysis and comparative evaluation methods were applied in the study. The main export products, their positioning in international markets, and existing challenges and constraints were identified. The findings highlight the need for export diversification, deep processing of products, alignment with international standards, and the adoption of digital technologies. Based on the results, practical recommendations were developed to improve the export strategy of the Khorezm region and contribute to national economic growth. This study holds both theoretical and practical significance for enhancing regional export policies and economic development.

Key words: Khorezm region, foreign trade, export potential, diversification, digital technologies, economic development.

Аннотация: В статье представлен всесторонний анализ экспортного потенциала Хорезмской области с акцентом на эффективное использование экономических возможностей и ресурсов региона для выявления перспективных направлений экспорта. В исследовании применялись методы статистического анализа и сравнительной оценки. Выявлены основные экспортные товары, их позиции на внешних рынках, а также существующие проблемы и ограничения. Результаты показали необходимость диверсификации экспорта, глубокой переработки продукции, приведения её к международным стандартам и внедрения цифровых технологий. На основе анализа разработаны практические рекомендации по совершенствованию экспортной стратегии Хорезмской области и содействию экономическому росту страны. Статья имеет теоретическую и практическую ценность для развития региональной экспортной политики и повышения экономического потенциала.

Ключевые слова: Хорезмская область, внешняя торговля, экспортный потенциал, диверсификация, цифровые технологии, экономическое развитие.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdoning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Eksport salohiyatini oshirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga erishish, xorijiy valyuta oqimini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. So'nggi yillarda mamlakatimiz ham xalqaro bozorlarga kirish va raqobatbardosh tovar hamda xizmatlari bilan faol ishtirok etish borasida qator izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, shundan 26,9 milliard dollar eksport va 38,9 milliard dollar import ulushiga to'g'ri kelmoqda, natijada tashqi savdo saldosi manfiy 12 milliard dollarga yetdi [1].

Tadqiqot obyekti sifatida olingan Xorazm viloyati ham so'nggi yillarda qator sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, viloyat yalpi hududiy mahsuloti 2023-yilga nisbatan 106,4 %



o'sib, 51 trillion so'mga yetdi [2]. Viloyat YAHM tarkibida eng katta o'sish sur'atlari xizmatlar tarmog'ida 3 % o'sish bilan qayd etilgan bo'lib, undan keyingi o'rinlarni sanoat (1,2 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1,1 %) egallagan [3].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, Xorazm viloyatining tashqi savdo faoliyatida ham so'nggi yillarda manfiy saldo ko'rsatkichlari kuzatilmoqda. 2024-yil yakunlarida viloyat eksport hajmi 386,3 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, import hajmi 470,9 million dollarga yetib, manfiy saldo 84,7 million dollarni tashkil etdi [4].

Tadqiqotning maqsadi – Xorazm viloyatining tashqi savdo tarkibini kompleks tahlil qilish orqali mavjud imkoniyatlarni aniqlash, ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish orqali viloyatning mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishidagi rolini mustahkamlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyatini tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mintaqaning iqtisodiy o'sishiga xizmat qiluvchi muhim omillarni aniqlashga qaratilgan. Xususan, Xorazm viloyatining eksport salohiyatiga oid o'rganilgan adabiyotlarda hududning iqtisodiy imkoniyatlari, ishlab chiqarish ko'lamlari, eksport geografiyasi va eksport tarkibining o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, tayyor kiyim-kechak, sanoat tovarlari, meva-sabzavotlar va paxta mahsulotlari asosiy o'rin tutadi. So'nggi yillarda tayyor mahsulotlar eksportining oshib borayotgani qayd etilgan bo'lib, bu jarayon sanoatni modernizatsiya qilish va mahsulotlarni chuqur qayta ishlash hajmining ortib borayotganini ko'rsatadi [5].

Statistik ma'lumotlar Xorazm viloyati eksportining yillik hajmi barqaror o'sib borayotganini va eksportning asosiy bozorlarini Pokiston, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya hamda Xitoy tashkil etayotganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, hududlararo va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayganidan dalolat beradi. Shuningdek, ayrim ilmiy manbalarda viloyatning eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport qilinayotgan mahsulotlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirish zarurligi ta'kidlanadi [6]. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdodagi faolligi mintaqaviy eksport salohiyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [7].

Eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib, u eksport hajmining o'zgaruvchanligiga va xomashyo mahsulotlariga yuqori darajada bog'liqlik bilan bog'liq bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish imkonini beradi. O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi eksport hajmini kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [8].

Amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, eksportni diversifikatsiya qilish jarayoni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda [9]. Eksport faoliyatini kengaytirish uchun esa savdo, investitsiya va sanoat siyosatini o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks iqtisodiy yondashuv zarur. Hududiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda biznes muhiti barqarorligini ta'minlashda institutsional islohotlar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, infratuzilmaga qaratilgan sarmoyalar tashqi savdo salohiyatini kuchaytirish va mintaqaning iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishga xizmat qiladi [10].

O'zbekistonning mintaqaviy integratsiyaga yo'naltirilgan strategiyasi mamlakat ichida va Markaziy Osiyo doirasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish sohasida innovatsion klasterlarni rivojlantirish maqsadida turli maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan. Ushbu zonalarda zamonaviy infratuzilma yaratilgan bo'lib, investorlar uchun bir qator soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilgan. Bu chora-tadbirlar natijasida sarmoyadorlarning qiziqishi ortmoqda, eksport salohiyatiga ega mahalliy ishlab chiqaruvchilar esa xalqaro bozorlarga kirib borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [11]. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash, inson kapitaliga sarmoya yo'naltirish hamda qishloq hududlarda taraqqiyotni jadallashtirish orqali inklyuziv o'sishga erishish muhim vazifa etib belgilangan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyatining eksport salohiyatini baholash hamda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash uchun tizimli, kompleks va taqqoslov tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy ishda asosan quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida Xorazm viloyatining eksport salohiyatini baholash va uni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash uchun sifat va miqdoriy tahlil yondashuvlariga asoslanildi.



Tadqiqot 2014–2024-yillar davrini qamrab olib, ushbu davr mobaynida viloyatdagi eksport hajmi, mahsulot turlari hamda asosiy tashqi bozorlar bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plandi. Ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Eksport tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida trend tahlili va o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bundan tashqari, eksport salohiyatining viloyat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlash uchun korrelyatsiya va regressiya tahlili kabi statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida paxta xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ulushi, logistika infratuzilmasining eksport faoliyatiga ta'siri hamda yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 2024-yilda 51,2 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan 17,5 trillion so'm qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga, sanoat va qurilish sohalari birgalikda 12,5 trillion so'mga, xizmatlar sohasi 20,2 trillion so'mga va mahsulotlarga sof soliqlar 0,9 trillion so'mga to'g'ri kelmoqda.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti o'sish sur'atiga quyidagilar asosiy ta'sir ko'rsatdi: qurilish sohasi – 111,4 % (umumiy ulushning 8,9 %), sanoat – 102,1 % (umumiy ulushning 16,0 %), jami xizmatlar – 107,8 % (umumiy ulushning 40,3 %) [13], qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 103,0 % (umumiy ulushning 34,8 %) ni tashkil etdi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 72,3 %i kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 2023-yil yanvar-dekabrda 72,7 %ni tashkil etgan edi. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 34,8 %ni tashkil qilib, 2023-yil yanvar-dekabr ko'rsatkichiga (37,8 %) nisbatan 3,0 punktga kamaydi. Sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 24,9 %ni tashkil etib, 2023-yil yanvar-dekabr (23,6 %) nisbatan 1,3 punktga o'sdi. Xizmatlar sohasi ulushi 40,3 %ni tashkil etib, o'tgan yilga (38,6 %) nisbatan 1,7 punktga oshdi.

2024-yilda aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulot hajmi 25,4 million so'mni tashkil qilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 4,4 % o'sish qayd etilgan [14].

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi Xorazm viloyatining eksport va import tarkibini chuqur tahlil qilish, tashqi savdo yo'nalishlarining istiqbolli jihatlarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat bo'lgani sababli, avvalo viloyatning mavjud tashqi savdo tarkibi va aloqalari tahlil qilindi.



1-rasm. 2017–2024 yillar davomida Xorazm viloyatining tashqi savdo ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, viloyat tashqi savdo hajmi 2017-yilga nisbatan 3,3 martaga ko'payib, 857,1 million dollarga yetgan. Viloyatning import ko'rsatkichlarida esa bir qator beqarorlik kuzatilmoqda. Jumladan, 2019-yilda import hajmi 410,9 million dollardan 2020-yilda 299,7 million dollarga kamaygan, 2021-yilda esa 285,9 million dollar ko'rsatkich qayd etilgan.



Tahlil qilinayotgan sakkiz yillik davr mobaynida tashqi savdo balansi doimiy ravishda manfiy ko'rsatkich bilan qayd etilgan bo'lib, bu viloyat eksport ko'rsatkichlariga nisbatan import hajmining yuqoriligini anglatadi. O'tgan yillar davomida viloyat eksport tarkibida ham qator o'zgarishlar ro'y bergan: paxta tolasi eksporti keskin kamaygan, oziq-ovqat mahsulotlari ulushi esa ortib borgan [15].

1-jadval. Xorazm viloyatining eksport tarkibi 2017-2024 yillar kesimida (foizda).

Yillar	oziq-ovqat mahsulotlari	paxta tolasi	energiya manbaalari va neft mahsulotlari	qora va rangli metallar	xizmatlar	mashina va asbob uskunalar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	boshqalar
2017	11.6	43.1	0.0	0.0	8.1	0.0	0.8	36.3
2018	27.8	10.7	0.1	0.1	13.6	1.4	1.0	45.3
2019	49.1	5.2	0.9	1.0	11.4	0.1	0.6	31.7
2020	31.7	4.3	0.0	0.8	5.2	0.1	0.8	57.1
2021	31.1	0.5	0.6	0.9	8.1	0.2	0.8	57.9
2022	33.0	0.1	2.1	1.6	6.6	0.1	0.9	55.6
2023	46.3	0.0	1.0	0.0	6.2	0.2	0.9	45.2
2024	58.9	0.0	0.9	0.0	4.9	0.2	0.3	34.9

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, o'tgan davr mobaynida viloyatning eksport tarkibida, ayniqsa, paxta tolasi eksportida katta o'zgarishlar yuz bergan. 2017-yilda ushbu yagona mahsulot deyarli viloyat eksportining yarmiga teng bo'lgan. Albatta, mamlakatimizda olib borilgan tub islohotlar natijasida paxta xomashyosi eksportiga chek qo'yildi. Bunga asosiy sabab sifatida mamlakatda qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish va xomashyoni chuqur qayta ishlashni rivojlantirish maqsadi ko'rsatiladi.

Tahlil qilingan yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Buning asosiy sababi – viloyatning qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda nisbiy ustunlikka ega ekanligi bilan bog'liq.

Xorazm viloyatining tashqi savdo hamkorlari soni va ularning geografik jihatdan diversifikatsiyasini ta'minlash bo'yicha ham tub islohotlarni davom ettirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan viloyatning yirik savdo hamkorlari va ularning tashqi savdoda tutgan ulushini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval. Xorazm viloyatining tashqi savdo hamkorlari (2024 yil)¹.

Mamlakatlar	Tashqi savdo (million dollarda)	Eksport (million dollarda)	Import (million dollarda)	Viloyat tashqi savdosida ulushi (foizda)
Rossiya	236.4	112.2	124.1	27.6%
Braziliya	113.5	0.1	113.5	13.3%
XXR	95.5	12.6	82.9	11.1%
Pokiston	88.9	88.4	0.5	10.4%
Afg'oniston	60.2	60.1	0.1	7.0%
Turkiya	46.3	26.3	20.0	5.4%
Belarus	33.6	5.9	27.6	3.9%
Eron	31.9	15.3	16.6	3.7%
Qozog'iston	27.5	20.3	7.2	3.2%
Germaniya	23.2	1.6	21.5	2.7%

2-jadvaldan ko'rinib turganidek, Xorazm viloyati 2024-yil davomida eng katta tashqi savdo aloqalarini Rossiya Federatsiyasi bilan amalga oshirgan bo'lib, umumiy savdo hajmida uning ulushi 27,6 %ni tashkil qilgan. Undan keyingi o'rinlarda Braziliya 13,3 % va Xitoy Xalq Respublikasi 11,1 % ko'rsatkichlari bilan qayd etilgan.

Shuningdek, jadval ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm viloyati hozirda dunyoning 145 mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda.

1 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatining eksport salohiyatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, mintaqa O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi hududlardan biri bo'lib, o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va inson kapitali bilan eksportni kengaytirish uchun salmoqli imkoniyatlarga ega. Jumladan, meva-sabzavotlar, paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar, ipak hamda turizmga oid xizmatlar mintaqaning asosiy eksport yo'nalishlarini tashkil etadi.

Biroq o'tkazilgan tahlillar Xorazm viloyatida mavjud eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Bu holatga bir necha omillar sabab bo'lmoqda: mahsulotlarni chuqur qayta ishlash darajasining pastligi, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasining zamonaviy talablarga javob bermasligi, marketing va xorijiy bozorlar bilan aloqalarning zaifligi, eksport faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning yetarlicha takomillashmaganligi shular jumlasidandir.

Xalqaro bozorlardagi talablar, texnik reglamentlar, ekologik va sifat standartlari doimiy yangilanib borayotgan bir sharoitda, xorijiy bozorlar uchun mo'ljallangan mahsulotlarni xalqaro talablar asosida ishlab chiqish va eksportni diversifikatsiya qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, global miqyosda ekologik toza, sertifikatlangan, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga bo'lgan talab ortib borayotgan bir davrda Xorazm viloyati uchun ushbu yo'nalishlarda faoliyatni kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Xorazm viloyati mehnat resurslari bilan boy hudud bo'lib, yoshlar salohiyatidan samarali foydalanilsa, innovatsion yondashuvlar orqali yangi eksport tarmoqlari va xizmat sohalarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni eksport faoliyatiga joriy etish orqali tashqi bozorlarga chiqishdagi to'siqlarni kamaytirish, axborot almashinuvini soddalashtirish va narx raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish: Mahalliy tadbirkorlarni eksport bozorlariga yo'naltirish, eksport uchun zarur infratuzilmalarni yaratish, ayniqsa mahsulotlarni saqlash va logistika tizimini modernizatsiya qilish;

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish: Meva-sabzavot va paxta mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymatni oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berishni yo'lga qo'yish;

Raqamli eksport platformalarini joriy etish: Xorijiy bozorlar bilan bog'lanishni osonlashtirish, onlayn savdo imkoniyatlarini kengaytirish uchun e-eksport platformasini yaratish va tadbirkorlarni bu borada qo'llab-quvvatlash;

Sertifikatlash va standartlashtirish tizimini kuchaytirish: Mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarish uchun zarur laboratoriyalar va texnik xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish;

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Eksportga yo'naltirilgan sohalarga xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish orqali yangi texnologiyalar va menejment tajribalarini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatining eksport salohiyati yuqori bo'lib, uni kompleks yondashuvlar asosida rivojlantirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali mintaqaning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Bu esa nafaqat hududiy iqtisodiy o'sishga, balki butun mamlakat eksport strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3698&Itemid=1000000000000
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. file:///C:/Users/user/Downloads/YALPI%20%20HUDUDIIY%20MAHSULOT%20(1).pdf
3. Ergash Ibadullaev, Alibek Rajabov, Dilfuza Matyakubova, Azizbek Yakubov va Inomjon Yusubov. Empirical analysis of renewable and non-renewable energy resources consumption impact on economic development in Uzbekistan. BIO Web of Conferences 82, 050 (2024) MSNBAS2023. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20248205002>
4. Alibek Rajabov, Ergash Ibadullaev, Baxtiyor Egamov, Xurshid Zaripov va Jaxongir Qosimov. Empirical analysis of determining the influence of the level of innovative development on the economy of world countries. E3S Web of Conferences 449, 02001 (2023) PDSED 2023. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202344902001>
5. Ibadullaev, E., Matkarimov, M., Zakirova, G., & Jabbarov, M. Scenarios for increasing the efficiency of utilizing Uzbekistan ecotourism potential. Scientific Journal of "International Finance & Accounting", Issue 5, October 2024. ISSN: 2181-1016
6. Fozil Xolmurotov. Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot. 2025-yil, aprel, № 4-son. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>
7. Caporin, Massimiliano, Bekhzod Kuziboev, Ergash Ibadullaev, Elbek Khodjanizayov, Peter Marty va Olimjon Saidmamatov. 2024. The Contribution of Green, Blue, and Energy Sources to Economic Development in Central Asia. Economies 12: 251. <https://doi.org/10.3390/economies12090251>



8. Ibadullaev, E., Pagliacci, F., Defrancesco, E., va boshqalar. 2025. Farmers' attitudes on agritourism activity development in Uzbekistan: A Khorezm Region case study. *Research on World Agricultural Economy*, 6(1): 435–451. DOI: <https://doi.org/10.36956/rwae.v6i1.1474>
9. Fozil Xolmurotov, Obidjon Xamidov, Suxrob Davlatov, Ergash Ibadullaev, Xolilla Xolmurotov, Alisher Sherov va Gulsanam Arabova. 2025. The impact of renewable energy consumption on unemployment rates in Uzbekistan: An ARDL approach. *Environmental Economics*, 16(1), 78–88. doi:10.21511/ee.16(1).2025.06
10. Xolmurotov, F. (2023). Mintaqada aholi turmush farovonligini oshirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar roli. *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук*, 3(7): 83–91.
11. Ibadullaev, E. (2021). Current condition and analysis of development of tourism and recreation services in Khorezm region. *Economics and Education*, (5), 407–415. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss5/a267



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
